

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
78 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
“Intellectual mulk”, “Intellectual kapital”, “Nomoddiy aktiv” tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	



“INTELLEKTUAL MULK”, “INTELLEKTUAL KAPITAL”, “NOMODDIY AKTIV” TUSHUNCHALARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT HAMDA ULARDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

N.D.Maxmudova

“TIQXMMI”MTU “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası katta o‘qituvchisi Phd.

Annotatsiya: Ushbu maqola “intelektual mulk”, “intelektual kapital” va “nomoddiy aktiv” kontseptsiyalari o‘rtasidagi munosabat va o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiladi. Intellektual mulk (patentlar, mualliflik huquqlari, savdo belgilar) huquqiy himoya orqali mulkchilik huquqini ta‘minlaydi, intellektual kapital esa kompaniya bilimlari, tajribasi va innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi, nomoddiy aktivlar (brendlar, dasturiy ta‘minot) esa bu ikkalasini moliyaviy baholashda birlashtiradi. Maqolada bu tushunchalarning iqtisodiy mohiyati, huquqiy asoslari va biznesda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Natijada, ushbu tushunchalarning uyg‘unligi innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy rivojlanishda muhim omil ekanligi ta‘kidlanadi. Maqola tadqiqotlar va misollar orqali ushbu sohalarida strategik yondashuvlar taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Intellektual mulk, intellektual kapital, nomoddiy aktiv, munosabat, o‘zaro bog‘liqlik, huquqiy himoya, iqtisodiy baholash, innovatsiyalar.

Abstract: This article analyzes the relationship and interdependence between the concepts of “intellectual property”, “intellectual capital” and “intangible assets”. Intellectual property (patents, copyrights, trademarks) provides ownership rights through legal protection, intellectual capital includes a company’s knowledge, experience and innovation, while intangible assets (brands, software) combine these two in financial valuation. The article examines the economic essence, legal basis and application of these concepts in business. As a result, it is emphasized that the combination of these concepts is an important factor in stimulating innovation and economic development. The article offers strategic approaches in these areas through research and examples.

Keywords: Intellectual property, intellectual capital, intangible assets, relationship, interdependence, legal protection, economic valuation, innovation.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь и взаимозависимость понятий «интеллектуальная собственность», «интеллектуальный капитал» и «нематериальные активы». Интеллектуальная собственность (патенты, авторские права, товарные знаки) обеспечивает права собственности посредством правовой защиты, интеллектуальный капитал включает знания, опыт и инновации компании, в то время как нематериальные активы (бренды, программное обеспечение) объединяют эти два понятия в финансовой оценке. В статье рассматриваются экономическая сущность, правовая основа и применение этих понятий в бизнесе. В результате подчеркивается, что сочетание этих понятий является важным фактором стимулирования инноваций и экономического развития. В статье предлагаются стратегические подходы в этих областях посредством исследований и примеров.

Ключевые слова: Интеллектуальная собственность, интеллектуальный капитал, нематериальные активы, взаимосвязь, взаимозависимость, правовая защита, экономическая оценка, инновации.

KIRISH

Jahon mamlakatlarining globallashuvi jarayonida O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni yangi bosqichlarga olib chiqish yo‘lidagi izchil harakatlarni kuchaytirish hamda ularni bajarish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu vazifalarning ijrosini so‘ssiz ta‘minlash pirovardida Vatanimiz xalqimiz farovonligini oshirish va taraqqiyotini yanada yuksaltirishda xal qiluvchi omil sifatida intellektual mulk muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunga kelib, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Hozirgi kunda intellektual mulk obyektlari respublikamiz buxgalteriya hisobi tizimida yangi yondashuv asosida uzoq muddatli aktivlar — ya‘ni, mablag‘larning o‘ziga xos shakli sifatida e‘tirof etilmoqda. Raqamli



iqtisodiyot sharoitida “intellektual mulk”, “intellektual kapital” hamda “nomoddiy aktiv” kategoriyalari bo'yicha nazariy qarashlar va baholash yondashuvlari xorijiy ekspertlar hamda xalqaro moliyaviy institutlar e'tiborining markazida bo'lib, ular doimiy ilmiy va amaliy muhokama maydonini shakllantirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodchi olimlardan F.Piksli, J.Savari, I.F.Sher, O.Shmalenbalarning ta'kidlashicha: “nomoddiy aktivlar - xarajatlarning daromad kutilayotgan taxminiy yoki oldindan belgilangan yillar soniga taqsimlanishi sifatida qaraydi, har qanday korxonalar, mijozlar, imtiyozlar, foydalanish huquqlari, mualliflik huquqi va boshqalarni sotib olish, shuningdek ixtirolar, patentlar va boshqalar uchun xarajatlar sifatida belgilaydi”¹.

N. Shaydurovning fikriga ko'ra “nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobi obyektlari sifatida ko'rib chiqish nisbatan yaqinda boshlangan. Olingan gudvilni hisobga olish bo'yicha ba'zi manbaalar XV asrga, kelgusi davr xarajatlari esa XIV asrga borib taqalsa-da, nomoddiy aktivlarni hisobga olish tushunchasi birinchi marta faqat XIX asr oxirida paydo bo'lgan”².

A.Sedanov “intellektual kapital va aktivlar, intellektual faoliyat natijalari bo'lgan; moliyaviy hisobot standartlari bilan tan olingan va balansda aks ettirilgan nomoddiy aktivlar; tan olish me'zonlariga javob bermaydigan va balansda aks ettirilmagan nomoddiy aktivlar”³ deb fikr bildirgan.

Maxalliy iqtisodchi olimlarimizdan M.Po'latov esa intellektual mulk obyektlariga intellektual kapital sifatida qaraydi va quyidagicha ta'riflaydi “Intellektual kapital deganda kishilik jamiyatining yaxlit tarmoq va sohalarga kiruvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning turli miqdor, sifat va qiymat birliklarida baholanadigan va o'lchanadigan boyliklari majmuasi tushuniladi”⁴.

I.Ochilov esa, “Intellektual mulklar nomoddiy aktivlarning tarkibi bo'lib, xo'jalik faoliyatida uzoq vaqt mobaynida foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy xususiyatga ega bo'lmagan mol-mulk obektlaridir”⁵ deb yozadi.

N.R. Veyzman “intellektual aktivlarni “hayoliy kapital” deb atab, nomoddiy aktivlarni moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans)da tan olishning salbiy ta'siriga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, intellektual aktivlar - bu qiymatni o'zida mujassam etmaydigan, ammo bozor aylanmasi obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy mazmunga ega bo'lmagan obyekt: kompaniya narxi, monopol huquq va imtiyozlar, tovar belgilari va markalar, patentlar, nashr qilish huquqi, ishlab chiqarish sirlari (texnologik jarayonlarning retseptlari va formulalari)”⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, qiyosiy va tizimli yondashuv, taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, iqtisodiy statistik hamda prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Olimlarning tadqiqot ishlarining asosiy obyekti ular kechiktirilgan xarajatlar va debitorlik qarzlarini o'z ichiga olgan jismoniy shaklga ega bo'lmagan aktivlar bo'lib, intellektual mulkka alohida e'tibor berilmagan. Hozirgi kungacha intellektual mulk obyektlarini hisobga olish bo'yicha nazariy g'oyalarni shakllantirish va rivojlantirish tugallanmagan. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini hisobga olishni tartibga solishga oid 1944 yilda “American Institute of Certified Public Accountants” “Amortization of Intangible Assets” “Accounting Committee Bulletin” chop etildi”⁷.

Intellektual mulk obyektlari buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar ko'rinishida qabul qilinadi. Buxgalteriya hisobining 7 – sonli “Nomoddiy aktivlar” nomli milliy standartiga (BXMS) ko'ra: “ushbu aktivlar subyektning uzoq muddatli aktivlari sifatida quyidagi shartlarga javob berishi kerak birinchidan, moddiy-ashyoviy tuzilishga, jismoniy ko'rinishga ega bo'lmashligi, ikkinchidan, intellektual mulklardan mahsulot (ishlar, hizmatlar)ni ishlab chiqarish va boshqaruv vazifalarini amalga oshirishda uzoq muddat, bir yildan ortiq hizmat qilishi, uchinchidan, subyekt tomonidan intellektual mulkni keyinchalik qayta sotishni mo'ljallamasligi, agar qayta sotishga mo'ljallansa, tovar ko'rinishini oladi, to'rtinchidan, ushbu intellektual mulk aktiv sifatida ishonchlik bo'lishi,

1 Шер И.Ф. Бухгалтерия и баланс. М.: «Экономическая жизнь», 1926. 575 с.

2 Шайдуров Н.О. Неосязаемые активы в кредитных организациях: актуальные вопросы бухгалтерского учета. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Краснодар, 2002. 24 с.

3 Седанов А.А. Нематериальные и неосязаемые бизнес-активы предприятия // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 8 (299). Экономика. Вып. 40. С. 140-146.

4 Po'latov M.E. Intellektual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish, i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. Toshkent. 2017. – 16-b.

5 Ochilov I., Qurbonboev J. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 265-b.

6 Вейцман Н.Р. Очерки по бухгалтерскому учету и анализу. М.: Госфиниздат, 1958. 152 с.

7 American Institute of Certified Public Accountants' “Amortization of Intangible Assets” Accounting Committee Bulletin, 2019. 126 p



patentlar, guvohnomalar va boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlarning mavjudligi; beshinchidan, intellektual mulklarni subyektning boshqa mablag'lari(aktivlar)dan alohida ajratish imkoniyati ya'ni indentifikatsiya qilinishi mavjudligi"⁸.

1-jadvalda zamonaviy xorijiy amaliyotdagi nomoddiy aktivlarning asosiy xususiyatlariga olimlarning fikr – mulohazalari keltirilgan.

1-jadval. Xorijiy olimlarning intellektual mulk obyektlarining asosiy xususiyatlari to'g'risidagi qarashlari⁹

Kategoriyalar	Olimlarning fikrlari
Aktivni tan olish uchun ishonchli aniqlangan baxosining mavjudligi va qonuniy asoslarning mavjudligi.	B.Nidls, X. Anderson va D. Kolduyell "egasining huquq va imtiyozlariga asoslangan qiymatiga ega bo'lgan" aktivlarni nomoddiy deb e'tirof etish mumkinligini ta'kidlaydilar" ¹⁰ .
	D.Beyti ta'kidlaganidek, "nomoddiy aktivlarni tan olish me'zonlari majburiyatlarni qoplash qobiliyati sifatida aylanma va baholashning obyektiv dalillarini talab qilmasdan, balansda aks ettirish qobiliyatiga ko'proq yo'naltirilgan" ¹¹ .
	F.T. Xendroksin va H. Breda – "nomoddiy aktivlarni baholash "egasiga berilgan huquqlarga bog'liq" ¹² deb ta'kidlaydilar.
Kelajakdagi daromadga nisbatan daromad olish qobiliyati	L. Bernshteyn "nomoddiy aktivlar "kelajakda foyda olish huquqi" ekanligini ta'kidlaydi, ularni baholash kutilayotgan foydaga bog'liq" ¹³ deb hisoblaydi.
	E.S. Hendriksen va M.F. Van Breda nomoddiy aktivlar "nomoddiy xizmatlarni sotib olish uchun kechiktirilgan xarajatlar"ni ifodalaydi, ular alohida (boshqa aktivlardan) ko'rib chiqishning mumkin emasligi va kelajakdagi daromadlarning noaniqligi bilan tavsiflanadi" ¹⁴ deb ta'kidlaydilar.
Butun kompaniyani baholashga ta'sir qilish qobiliyati	B.Kolass "nomoddiy aktivlarni kompaniyaning nomoddiy mulki sifatida izohlaydi, u moddiy aktivlar bilan birgalikda "aylanmani amalga oshirishi" mumkin bo'lgan ma'lum bir qiymatni tashkil qiladi va uning tarkibiy elementlaridan farq qiladi" ¹⁵ .
	M.R. Metyus va M.B. Pereraning ta'kidlashicha, "nomoddiy aktivlarni aylanma aktivlarga kiritish sof aktivlar qiymatini kompaniyaning bozor qiymatiga yaqinlashtiradi, lekin u investitsiya qilingan kapitalning daromadligiga ham keskin salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin" ¹⁶ .

"Nomoddiy aktivlar" tushunchasiga berilgan turli ta'riflar ushbu atamaning talqini bir xil emasligini yaqqol namoyon etadi. Ayrim tadqiqotchilar bu aktivlarning huquqiy tabiatiga urg'u berib, ularni intellektual mulkka bo'lgan huquq sifatida izohlashsa, boshqalari ularning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini asosiy e'tibor markaziga qo'yadi. Shu bilan birga, nomoddiy aktivlarni xarajatlar shaklida tushunishni qo'llab-quvvatlovchi yondashuvlar ham mavjudligini ta'kidlash mumkin.

Shu bilan birga, "Nomoddiy aktivlarga" 7-son BHMSga ko'ra, "intellektual mulk obyektlarining boshlang'ich qiymati ularni yaratish, xarid qilib olish xarajatlari va foydalanish uchun ishga yaroqli holatga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan tashkil topadi"¹⁷.

8 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar"ni tasdiqlash to'g'risidagi 2005 yil 27 iyundagi 1485-son buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009 yil 21 yanvardagi 7-son (ro'yxat raqami 1485-1, 2009 yil 14 fevral), 2013 yil 17 maydagi 51-son (ro'yxat raqami 1485-2, 2013 yil 22 may), 2016 yil 5 sentabrdagi 66-son (ro'yxat raqami 1485-3, 2016 yil 9 sentabr), 2017 yil 12 iyundagi 74-son (ro'yxat raqami 1485-4, 2017 yil 16 iyun) buyruqlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021 y., 10/21/3338/1117-son) www.lex.uz (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)

9 Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

10 Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Тамоёилы бухгалтерского учета: Пер. с англ. М.: Финансы и статистика, 1997. 496 с.

11 Бетте Й. Балансоведение: Пер. С нем. М.: Издательство «Бухгалтерский учёт», 2000. 454 с.

12 Хакен Г. Синергетика. М.: Мир, 2008. 345 с.

13 Бернштейн Л.А. Анализ финансовой отчетности: теория, практика и интерпретация: Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. М.: Финансы и статистика, 1996. 624 с.

14 Хендриксен Э.С., Ван Бредя М.Ф. Теория бухгалтерского учета: Пер. с англ. / Под ред. Я.В. Соколова. М.: Финансы и статистика, 1997. 576 с.

15 Коласс Б. Управление финансовой деятельностью предприятия. Проблемы, концепции и методы. М.: Финансы и статистика, 1997. 643 с

16 Мэтьюс М.Р., Перера М.Б. Теория бухгалтерского учета / Пер. с англ. М.: Аудит, ЮНИТИ, 1999. 663 с.

17 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar"ni tasdiqlash to'g'risidagi 2005 yil 27 iyundagi 1485-son buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009 yil 21 yanvardagi 7-son (ro'yxat raqami 1485-1, 2009 yil 14 fevral), 2013 yil 17 maydagi 51-son (ro'yxat raqami 1485-2, 2013 yil 22 may), 2016 yil 5 sentabrdagi 66-son (ro'yxat raqami 1485-3, 2016 yil 9 sentabr), 2017 yil 12 iyundagi 74-son (ro'yxat raqami 1485-4, 2017 yil 16 iyun) buyruqlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021 y., 10/21/3338/1117-son) www.lex.uz (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)

Bizning nazarimizda, nomoddiy aktivlar konsepsiyasida mavjud bo'lgan nazariy qarashlar bilan amaldagi buxgalteriya hisobi qoidalari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Nomoddiy aktivlarning nomoddiyligi ularning huquqiy tabiatidan kelib chiqadi. Shuningdek, mulkiy qiymatga ega bo'lgan aktiv sifatida faqat to'liq egalik qilish mezoniga javob beruvchi eksklyuziv huquqlar tan olinishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mavjud yondashuvlarning har biri bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Nomoddiy aktivlarga oid umumiy yondashuvda murosaga erishish uchun buxgalteriya hisobi nazariyasida mavjud bo'lgan talqinlar buxgalterlarning professional fikr-mulohazalari asosida qayta ko'rib chiqilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, investitsion jozibadorlikni ta'minlashda tashkilotlarning moliyaviy holatini aks ettiruvchi hisobotlar foydalanuvchilariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim elementlardan biri sifatida "nomoddiy aktivlar" tushunchasi alohida e'tiborga loyiq. Biroq amaldagi hisob tizimida "intellektual mulk" toifasining huquqiy mazmuni va iqtisodiy qiymati to'liq ifodasini topmayapti. Shu bilan birga, intellektual mulkka xos bo'lgan bir qator o'ziga xosliklar ushbu aktivlarni manfaatdor tomonlar va steypolderlar tomonidan qonuniy huquqlar bilan himoyalangan iqtisodiy resurs sifatida baholashni murakkablashtirmoqda. Ushbu holat, o'z navbatida, nomoddiy aktivlarni hisobga olishda amal qilinayotgan konsepsiyaning qat'iy axborot cheklavlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu asosda, zamonaviy iqtisodiy sharoitda bu tushunchaning mazmun-mohiyatini kengaytirish va uni yangi talqinlar asosida shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini qayta baholash natijalarini buxgalteriya hisobida to'g'ri va tizimli aks ettirish, buxgalteriya yozuvlarini xalqaro standartlar asosida rasmiylashtirish hamda ushbu obyektlar to'g'risidagi moliyaviy axborotni hisobotlarda to'liq, ochiq va foydalanuvchilar ehtiyojlariga mos tarzda taqdim etish – buxgalteriya axborot tizimi samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гиляровкая Л.Т., Лысенко Д.В., Эндовицкий Д.А. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. – М.: ТК Велби, «Проспект», 2006. 225 б.
2. Глазунов М.И. Системы алгоритмов определения величины собственных оборотных средств [Электронный ресурс] / М.И. Глазунов// Экономический анализ: теория и практика. - 2009. - №34.
3. Gloria A. Grizzle and William Erakle Klay. Forecasting State Sales Tax Revenues: Comparing the Accuracy of Defferent Methods. www.jstor.org – elektron jurnallar katalogidan olindi. Manba. Stat&Local Government Review, Vol. 26, No.3 (Autumn, 1994), pp. 142-152.
4. Грант Р.М. Современный стратегический анализ / пер. с англ.; под ред. В.Н.Фунтова. 5-е изд. СПб.: Питер, 2008. - 560 б.
5. Грузинов В.П., Грибов В.Д. Экономика предприятия: Учеб. Пособие. /В.П. Грузинов, В.Д. Грибов/ - 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2000. 208 б.
6. Дегтярёва Т.Д. Прогнозирование аграрного производства региона с применением адаптивных моделей / Т.Д. Дегтярёва, Е.А. Чулкова// Известия Оренбургского государственного аграрного университета. – М.: - 2012. - Т. 33. № 1-1.
7. Dustmurotov R.D. Audit asoslari. – Toshkent.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2003. - 612 b.
8. Друри К. Управленческий учет для бизнес-решений. Учебник / Пер.сангл. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 1071 б. – (Серия «Зарубежный учебник»).
9. Бланк И. А. Финансовый менеджмент. /И.А. Бланк/ - 2 изд. перев.и доп. - Киев: Эльга, Ника-Центр, 2007. – 656 б.
10. Борзенко М.С. Handbook по дисциплине «Юридическая логика». М., 2011. 240 б.
11. Бородачёв С.М. Теория принятия решений. Екатеринбург: Изд-во Урал, ун-та, 2014. 124 б.
12. Веревищев И.И. Курс лекций по логике. Ульяновск: УлГТУ, 2013.228 б.
13. Гарынцев А.Г. Балансовая политика коммерческой организации. Нижний Новгород, 2009. 199 б.
14. Николаев А.С., Котенева О.Е. Методы управления интеллектуальной собственностью, учебно-методическое пособие Санкт-Петербург 2020.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100